XALQ DEPUTATLARI UZUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-017-8-118-K/24 Uzun tumani

Uzun tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-016-8-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Uzun tumani Iqtisodiyot va moliya bosh bo‘limining 2024-yil 26-dekabrdagi 221-02-09/443-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-016-8-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Uzun tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **111 mlrd 623 mln. 70 ming so‘m** va xarajatlari esa **111 mlrd 623 mln 70 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinsin, shuningdek, Uzun tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 332 **mln 656 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Uzun tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 mlrd 593 mln so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon

xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 5- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosar, iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i B.Xasanov, tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Qosimov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

Shuningdek, tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Qosimov) ushbu qaror loyihasi jamoatchilik muhokamasi portalida turgan vaqtda qaror loyihasiga kelib tushgan murojaatlar;

Xususan,

-Aylanmadan olinadigan soliq 2 mlrd so‘m, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘idan 900 mln so‘m, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini 2,7 mlrd so‘mga kamaytirish yuzasidan kelib tushgan takliflarni inobatga olib, takliflarda keltirib o‘tilgan mablag‘larni to‘ldirish maqsadida tumanda yangi ish o‘rinlarni yaratish, yashirin iqtisodiyotni aniqlash hamda ularni legallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab olsin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Kamolov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i B.Xasanov zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi BOZOROV XABIBULLA SHERDONAQULOVICH

Xalq deputatlari Uzun tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-017-8-118-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Uzun tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

T/R	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**111 623 070,0**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	8 515 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	53 970 070,0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 684 000,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 465 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	7 500 000,0
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 088 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20 908 000,0
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	10 000,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 688 000,0
10	*Маълумот учун* Қишлоқ хўжалиги корхоналари сув солиғининг 40 фоизини қайтариш (ПҚ-5)*	*1008000*
11	Davlat boji	5 264 000,0
12	Yig‘imlar	2 418 000,0
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	113 000,0
Daromadlar hammasi		**111 623 070,0**

Xalq deputatlari Uzun tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-017-8-118-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Uzun tumanining viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, Jami	**111 623 070**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	111 623 070
1.	**Umumta’lim muassasalari va maktabgacha ta’lim va maktab sohasidagi boshqa tashkilotlar**	**12 333 067,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 333 067,0
2.	**Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi muassasalar**	**13 705 937,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 705 937,0
3.	**Madaniyat sohasidagi muassasalar**	**2 272 520**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 272 520
4.	**Jismoniy tarbiya va sport sohasi**	**5 337 654,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 337 654,0
5.	**Ozodikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fukarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"**	**34 650,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	34 650,0
6.	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**615 312,0**
	shu jumladan:	0,0
	joriy xarajatlar	615 312,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
7.	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8.	**Suv yetkazib berish xizmati**	**2 260 335,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 260 335,0
9.	**Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari**	**4 124 985,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 124 985,0
10.	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**12 227 844,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 227 844,0
11.	**Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**2 511 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 511 000,0
12.	**Tuman boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari**	**24 073 113,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	24 073 113,0
13	**Shu jumladan tuman xokimligini saqlash xarajatlari**	**3 083 417,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 083 417,0
14	**Tuman xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari**	**58 496,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	58 496,0
15	**Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari**	**2 264 392,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 264 392,0
16	**Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	
17	**Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi**	**2 820 890,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 820 890,0
18	**Tuman xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari**	**248 426,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	248 426,0
19	**Tuman madaniyat bo‘limi apparatini saqlash xarajatlari**	**137 502,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	137 502,0

20	**Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini saqlash xarajatlari**	**2 232 656,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 232 656,0
21	**Tuman mahallabay ishlash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘limini saqlash xarajatlari**	**5 624 725,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 624 725,0
22	**Tuman yoshlar ishlari agentligi bo‘limini saqlash xarajatlari**	**4 487 687,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 487 687,0
23	**Tuman Veterenariya bo‘limi**	**3 114 922,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 114 922,0
13.	**Ijtimoiy moslashuv markazi**	**51 563,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	51 563,0
24	**Zahira jamg‘armasi**	**1 593 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 593 000,0
25	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**30 482 090,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	30 482 090,0

Xalq deputatlari Uzun tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-017-8-118-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Soliqlar va yig‘imlardan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga 2025-yil uchun ajratmalar me’yori*

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Davlat boji	Yig‘imlar	Ijara to‘lovlari
1	Uzun tumani	100	100	100	100	77	100	100	100	100	100	100	100

Izoh:

* Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Uzun tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-017-8-118-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlari daromadlar va xarajatlar prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

T/R	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI		**111 623 070**	**111 623 070**
1	Uzun tumani	111 623 070,0	111 623 070,0

Xalq deputatlari Uzun tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-017-8-118-K/24 -son qaroriga
5-ilova

2025-yilda Uzun tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

(ming so‘mda)

T/R	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Uzun tumani	**332 656,0**